



MOLIYAVIY MENEJMENTNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

Yuldasheva Shaxnoza Akramjon qizi

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti.
Iqtisodiyot kafedrasida o'qituvchi-stajyori, telefon +998-99-
463-14-92*

Nishonboyev Dostmurod Shuhratbek ogli

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti.
Iqtisodiyot ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

ARTICLE INFO

Received: 17th October 2023

Accepted: 18th October 2023

Online: 19th October 2023

KALIT SO'ZLAR:

*Korxonalar faoliyati,
xorijiy investitsiyalar,
zamonaviy marketing,
moliyaviy munosabatlar,
bankning krediti, lizing
operatsiyalari, xo'jalik
subyektlari, iqtisodiy
ko'rsatkichlar.*

ANNOTATSIYA:

Moliyaviy munosabatlarning asosiy tavsifi ularning taqsimlash xarakteriga ega ekanligi uchun, shunga muvofiq ravishda moliyaning bosh yoki asosiy funktsiyasi taqsimlashdir. Moliya yordamida amalga oshirilishi lozim bo'lgan taqsimlash jarayoni murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Albatta, mamlakatimiz iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishishida muhim omillar, ishlab chiqarish hajmining o'sishi, pul qadrsizlanishini pasaytirish, eksport hajmini oshirish va boshqa shu kabi makroiqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan birga respublikamizda faoliyat yuritayotgan har bir korxonada, firma, kompaniyalarning ham xo'jalik subvekti sifatida rivojlantirishni taqozo etadi.

Moliyaviy munosabatlarning asosiy tavsifi ularning taqsimlash xarakteriga ega ekanligi uchun, shunga muvofiq ravishda moliyaning bosh yoki asosiy funktsiyasi taqsimlashdir. Moliya yordamida amalga oshirilishi lozim bo'lgan taqsimlash jarayoni murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Moliya YaIMni taqsimlashning turli bosqichlariga xizmat qilib, uni birlamchi taqsimlashda va qayta taqsimlashda ishtirok etadi.

Moliyaviy metod orqali taqsimlash iqtisodiyotni boshqarishning turli darajalarini (mamlakat, uning alohida olingan mintaqalari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari miqyosida) qamrab oladi. Unga taqsimlashning

turli ko'rinishlarini (xo'jalik ichida, tarmoq ichida, tarmoqlararo, hududlararo va b.) tug'diruvchi ko'pbosqichlilik xosdir.

Moliyaviy boshqaruvning barcha tizimi davlatning moliyaviy siyosatiga asoslanadi. Shuning uchun ham moliyaviy siyosat moliyaviy boshqaruv tizimida eng asosiy element hisoblanadi. Moliyaviy siyosat davlatning moliyaviy munosabatlar sohasidagi mustaqil faoliyatidir. Bu faoliyat davlatning u yoki bu iqtisodiy va sotsial rivojlanish dasturini amalga oshirish uchun tegishli moliyaviy resurslar bilan ta'minlashga qaratilgan.

Moliyaviy siyosat o'z-o'zini bosib turuvchi mustaqil ahamiyatga ega bo'lib, bir vaqtning o'zida ijtimoiy faoliyatning har qanday sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Bu erda uning iqtisodiyot, sotsial soha, harbiy islohotlar yoki xalqaro munosabatlar bo'lishi printsiplial ahamiyatga ega emas.

Siyosat, siyosiy ta'sir va siyosiy rahbarlik quyidagi uch elementlardan tarkib topadi:

bosh maqsadni aniqlash va qo'yish hamda jamiyat hayotining ma'lum bir davriga xos qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun echilishi zarur bo'lgan istiqboldagi va yaqin kunlardagi vazifalarni konkretlashtirish; yordamida qo'yilgan maqsadlarga qisqa muddatlarda erishiladigan, yaqin kunlardagi va istiqboldagi vazifalar esa oqilona tartibda hal qilinadigan munosabatlarning metodlari, vositalari va konkret shakllarini ishlab chiqish; qo'yilgan vazifalarni echishga qodir bo'lgan kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, ularning bajarilishini tashkil qilish.

Davlat moliyaviy siyosatini mamlakat moliya tizimining barcha bo'g'inlarida moliyaviy resurslarning o'sishini balanslashtirilgan (mutanosiblashtirilgan) holda ta'minlash bo'yicha davlat sotsial-iqtisodiy siyosatining bir qismi sifatida qarash kerak. Xorijiy tajribalarning ko'rsatishicha, moliyaviy resurslarning balanslashtirilgan (mutanosiblashtirilgan) holda o'sishining zarurligini inkor etish mamlakat moliya tizimining o'zini degradatsiyalashuviga, iqtisodiyotning emirilishi va vayron bo'lishiga olib keladi.

Moliyaviy siyosatning o'ziga xos bo'lgan eng asosiy xususiyati shundan iboratki, bu siyosat mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishiga va iqtisodiy muvaffaqiyatlarga uzluksiz ravishda ta'sir ko'rsatib turishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Korxonalar moliyaviy siyosatining maqsadi quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

raqobat kurashi sharoitida korxonaning sog'lom hayot kechirishiga (faoliyat ko'rsatishiga) erishish;

yirik moliyaviy muvaffaqiyatsizliklardan va bankrotga (kasodga) uchrashdan qochib qutilish;

raqobatchilar bilan kurashda etakchilikka (lider bo'lishga) erishish;

korxonaning bozor qiymatini maksimallashtirish;

korxonada iqtisodiy salohiyatining o'sish sur'atlarini barqaror o'stirish;

ishlab chiqarish va realizatsiya hajmini oshirish;

foydani maksimallashtirish;

xarajatlarni minimallashtirish;

rentabelli faoliyatni ta'minlash

va boshqalar.

Menejment (inglizcha «management» — boshqarmoq, idora qilmoq, tashkil qilmoq) — bu:

— ishlab chiqarishni, tijoratni boshqarish bo'yicha ma'lum maqsadlarni ko'zlovchi amaliy faoliyat;

— boshqaruv nazariyasi fani boshqaruv tamoyillari, usullari, vositalari va shakllarining majmuasi;

— mamlakatimizning hozirgi zamon amaliyotida korxonada, aksiyadorlik jamiyatining rahbarlik qiluvchi tarkibidir.

Boshqaruv jarayoni — bu tashkilot resurslarini u tomonidan o'z maqsadlariga erishish uchun shakllantirish va foydalanish bo'yicha uzluksiz, izchil bajariladigan, o'zaro bog'langan harakatlari majmuasidir. Bu harakatlarni boshqaruv vazifalari deb ataydilar. Shunday qilib, boshqaruv jarayoni barcha vazifalarning umumiy yig'indisi hisoblanadi. Boshqaruv vazifalari — boshqaruv faoliyatining nisbatan mustaqil, ixtisoslashtirilgan va ajratilgan turlaridir. Bunday hisoblanishning boshqaruv vazifasi aniq aks ettirilgan mazmunga, uni amalga oshirishning ishlab chiqilgan mexanizmiga va doirasida uning tashkiliy ajralishi yakunlanadigan ma'lum tuzilmaga ega bo'lishi kerak. Mazmun ostida aniq vazifa doirasida amalga oshirilishi kerak bo'lgan harakat tushuniladi. Boshqaruv jarayonida amalga oshiriladigan harakatlar va vazifalarning mazmuni tashkilotning turi (ma'muriy, ijtimoiy, ta'lim va h.k.), uning faoliyati ko'lami va sohalari (ishlab chiqarish, savdo, xizmatlar ko'rsatish), boshqaruv iyerarxiyasidagi darajasi (boshqaruvning yuqori, o'rtacha yoki quyi darajasi), tashkilot ichidagi roli (ishlab chiqarish, marketing, moliya, xodimlar) va bir qator boshqa omillarga bog'liq Boshqaruvning tashkilotdagi vazifalari turli-tumanligiga qaramay

faoliyatning bir xildagi turlari mavjud bo'ladi. 1916-yilda ushbu konsepsiyani birinchi bo'lib ishlab chiqqan A.Fayolning yozishicha, beshta dastlabki vazifalar mavjud bo'ladi: boshqaruvni oldindan aytib berish va rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish, muvofiqlashtirish va nazorat qilishni bildiradi. Gap u yoki bu tashkilot xususiyatlari (o'lchami, belgilanishi, mulkchilik shakllari va h.k.)dan qat'i nazar boshqaruvning har qanday jarayoni tarkibiy qismlari bo'lgan vazifalar haqida ketmoqda, shuning uchun ularni umumiy deb ataydilar. Zamonaviy tadqiqotchilar boshqaruv vazifalarining boshqa ro'yxatini ishlab chiqqanlar: rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish (yoki buyruqlar berish), motivatsiya, rahbarlik, muvofiqlashtirish, nazorat, kommunikatsiyalar, tadqiqot qilish, baholash, qarorlar qabul qilish, xodimlarni tanlash vakillik va muzokaralar olib borish hamda bitimlar tuzish. Amalda boshqaruv bo'yicha har bir ishda umumiy boshqaruv vazifalari boshqarishdan biroz farq qiladi. Shunga qaramay, boshqaruvning beshta umumiy vazifalarini ajratishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

— rejalashtirish (maqsadlar va ularga erishish bo'yicha harakatlar rejasini tanlash);

— tashkil etish (vazifalarni bo'linmalar yoki xodimlar o'rtasida taqsimlash va ular o'rtasida o'zaro hamkorlikni o'rnatish);

— motivatsiya (ijrochilarni rejalashtirilgan harakatlarni amalga oshirish va qo'yilgan maqsadlarga erishishga rag'batlantirish);

— muvofiqlashtirish (oqilona aloqalarni o'rnatish yo'li bilan boshqarilayotgan tizimning har xil qismlari o'rtasida moslik va muvofiqlikni ta'minlaydi);

— nazorat (haqiqiy erishish mumkin bo'lgan yoki erishilgan natijalarni rejalashtirilganlar bilan taqqoslash).

Moliyaviy menejmentning shakllanishi yaqin o'tmishga borib taqaladi. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda turli mulkchilik shakllarining paydo bo'lishi, iqtisodiyotni bozor qonuniyatlariga asoslangan holda boshqarish tizimining takomillashuvi, biznesning turlari va zamonaviy yo'nalishlarini vujudga kelishi hamda ular faoliyatlarini samarali amalga oshirishda oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish sohalarida moliyaviy resurslarning ahamiyati va ularni optimal boshqarishni tashkil qilish moliyaviy menejmentni mustaqil fan sifatida shakllanishiga muhim turtki bo'ldi.

Moliyaviy menejmentning dastlabki nazariy elementlari XXasrning 30-

yillarida paydo bo'la boshlagan. Xususan, Dj. Vilyams tomonidan 1938-yilda, «Moliyaviy aktivlarning qiymatini baholash» modelini yaratilishi moliyaviy menejment fanining nazariyasini shakllanishiga muhim turtki bo'lgan. 60-yillarga kelib G. Markovitsa, U. Sharpa, Dj. Mossina kabi olimlar tomonidan, moliyaviy aktivlarning daromadlilikini baholash modelining (Capital Asset Pricing Model, CAPM) ishlab chiqilishi yuqoridagi nazariyaning keyingi rivojlanish bosqichi bo'ldi.

Moliyaviy menejment — moliyalarni boshqarishning barqarorligi, ishonchliligi va samaradorligini ta'minlashning majmuaviy tizimidir. U o'z ichiga moliyaviy ko'rsatkichlarni menejmentga ilmiy yondashuvlar va tamoyillar, daromadlar va xarajatlar balansi, resurslardan foydalanishning samaradorligi ko'rsatkichlari, ishlar va tovarlar rentabelligiga rioya qilish bilan shakllantirish va rejalashtirishni oladi.

Agrobiznes va uning turlari.

Agrobiznes – tadbirkorlik faoliyatining qishloq xo'jaligi va u bilan bog'liq sohalaridagi namoyon bo'lish shaklidir.

Qishloq xo'jaligi sohalaridagi tadbirkorlik faoliyati **agrobiznes** deyiladi.

Agrobiznes tushunchasiga bevosita qishloq xo'jaligi sohasiga kirmaydigan, biroq u bilan bevosita bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanuvchi biznes turlari ham kiritiladi.

Bu qishloq xo'jaligiga texnikaviy ta'mirlash xizmat ko'rsatish, uni mahsulatlarini qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berish bilan bog'liq bo'lgan tadbirkorlik faoliyatidir.

Agrobiznes agrosanoat integratsiyasi natijasida vujudga kelgan agrosanoat majmuasining barcha bo'g'inlarini qamrab oladi.

Agrobiznesning maqsadi – iste'mol bozorini yetarli miqdorda sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlari, sanoatni esa xom ashyo bilan uzluksiz ta'minlash orqali foyda ko'rishdan iborat.

Agrobiznesning asosiy shakli va bo'g'ini fermer va dehqon xo'jaliklaridir. Chunki bu xo'jaliklar bevosita qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaradi.

Fermer va dehqon xo'jaliklar o'z yerida yoki ijaraga olingan yerda ish yuritib, unda mulk egasi va ishlab chiqaruvchi fermerning o'zi va oila a'zolari hisoblani, ayrim hollarda yollanma mehnatdan foydalanishlari ham mumkin.

Mamlakatimizda fermer xo'jaligi, dehqon xo'jaligi, shaxsiy tomorqa xo'jaligi, ishlab chiqarish kooperativlari, agrofimlar, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkiliy-huquqiy shakldagi agrobiznes sub'yektlari faoliyat

yuritadi.

Agrobiznesning barcha elementlari (faoliyat yo'nalishlari) teng bo'lib, o'zaro bog'liq va bitta umumiy maqsadga ya'ni foyda olishga qaratilgan.

Agrobiznes bozor munosabatlarida ishtirok etishga, xaridorlarning ehtiyojlarini qondirishga, foyda olishga asoslangan.

Agrobiznesning keying rivojlanishi iqtisodiyotning integratsiyalashuvi va globallashuvi jarayonlari, axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi, ular iqtisodiyotdagi miqdoriy va sifat o'zgarishlarini ta'minlaydi.

Iqtisodiyotdagi inqirozni barataraf etish to'g'ridan-to'g'ri agrosanoat majmuasi korxonalarini rivojlanishiga bevosita bog'liq, chunki bu iste'mol bozorining tovarlarga to'yinganligi, raqobatning kengayishi, ish bilan bandlikning o'sishi, qishloqlarning ijtimoiy rivojlanishiga yordam beradi. Agrar iqtisodiyotning asosiy tarkibiy tuzuvchi omili bo'lib agrobiznes hisoblanadi.

Agrobiznes bozor sharoitida iqtisodiy munosabatlarning yuqori raqobatbardosh xususiyatini saqlab qolad, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining rivojlanishini, mahsulotni qayta ishlash, saqlash, tashish va yakuniy iste'molchiga yetkazib berishni oldindan belgilab beradi. Agrobiznes-bu qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash, tarqatish va qayta ishlash jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan bozor iqtisodiyoti sohasidir.

Fermer xo'jaliklari yerlarini maqbullashtirish jarayonida tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari Kengashlari tomonidan qonun ustuvorligini ta'minlash muhim vazifadir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-yanvardagi "Fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalarini yer maydonlarini maqbullashtirish hamda qishloq xo'jaligi ekin yerlardan samarali foydalanishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 14-sonli qarori fermer xo'jaliklari faoliyatida yangi imkoniyatlar ochadi. Unga ko'ra, qishloq xo'jaligi korxonalariga faoliyat yuritish uchun berilgan yer uchastkalari maydonlari maqbullashtiriladi.

Fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalarining yer uchastkalari maydonlarini maqbullashtirishda, ularning oxirgi uch yillik faoliyati to'liq tahlil qilinadi. Muhim yangiliklardan biri - qishloq xo'jaligi korxonalarini yer uchastkalarining hajmlari, ularning faoliyat yo'nalishlariga ko'ra belgilanadi. Misol uchun, paxtachilik va g'allachilik yo'nalishidagi qishloq xo'jaligi korxonalarini yer uchastkalari maydonlarining eng kam

o'lchami-100 gektar, g'alla sabzavotchilik uchun kamida-20 gektar bog'uzumchilik uchun-10 gektar, sabzavot-poliz uchun eng kam o'lchamli – 5 gektar qilib belgilangani bilan ahamiyatlidir. Chorvachilik yo'nalishidagi qishloq xo'jaligi korxonalari yer uchastkalarining hajmlari qonunchilikda belgilangan tartibida mavjud shartli mol bosh sonidan kelin chiqqan holda belgilanadi. Agarda, qishloq xo'jaligi korxonalari yer uchastkalarining o'lchami yuqorida keltirilgan miqdorlardan kam bo'lsa, ular maqbullashtiriladi.

Qarorda qishloq xo'jaligi korxonalari yer uchastkalari, birinchi navbatda to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritadigan, moliyaviy holati yaxshi va qishloq xo'jaligi texnikalariga ega bo'lgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari, paxta-to'qimachilik klasterlari, eksport qiluvchi va qayta ishlovchi korxonalarga ustuvorlik beriladi.

Qarorda qishloq xo'jaligi korxonalari yer uchastkalarining o'lchami mazkur talablarning 3-bandida nazarda tutilgan miqdorlardan kam bo'lgan taqdirda, ularni maqbullashtirishga asos bo'lishi ko'rsatib qo'yilgan bo'lib, bu normalar yer uchastkalaridan samarali foydalanayotgan, kontraktasiya shartnomasi majburiyatlarini bajarib kelayotgan, moddiy-texnika bazasiga ega bo'lgan hamda ko'p tarmoqli faoliyatni yo'lga qo'ygan paxta-g'allachilik yo'nalishidagi fermer xo'jaliklariga, shuningdek, zamonaviy issiqxonalar, intensiv usulda tashkil qilingan bog' va tokzorlarning yer uchastkalariga nisbatan bu miqdorlar qo'llanilmaydi.

Hukumatimizning qarori bilan fermer xo'jaliklari yer maydonlarining maqbullashtirilishi, yerdan maqsadli foydalanish va yer ijara shartnomasi talabalarini so'zsiz ijrosining ta'minlanishiga zamin yaratildi. Kelgusida fermer xo'jaliklarini yiriklashishi bilan ularni ishlab chiqarish faoliyati to'g'ri yo'lga qo'yiladi. Tuzilgan kontraktasiya shartnomalarining bajarilishi, mahsulot sotishdan tushgan mablag'larning bank hisob varaqlari orqali aylanishi hamda debitor-kreditor qarzdorliklari moliyaviy holatini hisob-kitobi ham yaxshilanadi. Bundan tashqari, fermer xo'jaliklari faoliyatida qo'shimcha tarmoqlar tashkil etish, zarur qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlash, moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanish holatini monitoring va tahlil qilib borilishi osonlashadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 17-oktyabrdagi "Meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori mamlakatimizda yetishtirilayotgan meva-sabzavot mahsulotlari eksportini

yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda respublikamiz qishloq xo'jaligini mexanizasiyalash, fermer xo'jaliklarining ekinlardan oladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari xosildorligini oshirish uchun zamonaviy ilm-fan va texnika yutuqlaridan samarali foydalanishni nazarda tutadigan zamonaviy texnika va texnologiyalarni qo'llash, mavjudlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan keng qamrovli ilmiy va innovasion ishlar olib borilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi preidentining 2016 yil 2 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4861-sonli farmoni.
2. Yuldasheva , S. ., & Po'latova , O. . (2023). O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2(10), 55–57. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/zdit/article/view/11574>
3. Yuldasheva Shaxnoza, Po'latova Odina. (2023). DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF AGRICULTURE IN UZBEKISTAN. DEVELOPMENT AND INNOVATIONS IN SCIENCE, 2(3), 103–106. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7778314>
4. Yuldasheva Shaxnoza, Olimjonova Farogat. (2023). AGRICULTURAL DEVELOPMENT POTENTIAL. INNOVATIVE RESEARCH IN SCIENCE, 2(3), 66–70. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7778308>
5. Yuldasheva Shahnoza, Faxriddinova Dilobar. (2023). ORGANIZING NEW TOURISM DESTINATIONS IN UZBEKISTAN. INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY, 3(2), 182–184. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7683651>
6. Yuldasheva Shahnoza, Faxriddinova Dilobar. (2023). THEORETICAL AND METHODOLOGICAL ISSUES OF DETERMINING THE EFFICIENCY OF COTTON RAW PRODUCTION. INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY, 3(2), 58–61. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7620997>
7. Yuldasheva Shaxnoza, Ismatova Nigora. (2023). IMPROVING THE STATE SUPPORT SYSTEM OF THE COTTON NETWORK. SOLUTION OF SOCIAL PROBLEMS IN MANAGEMENT AND ECONOMY, 2(2), 187–191. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7676504>